Ta'limning interfaol va innovatsion metodlari	2393
<i>X. K. Qarshiboyeva</i>	
Роль международных оценочных программ в оценке знаний учащихся.....	2396
<i>Каландарова Дилноза Самандаровна, Зарипова Зайнаб Нарзулло кизи</i>	
Inkorporatsion topshiriqlarning texnologiya ta'limida fanlararo integratsiyani ta'minlashdagi ahamiyati	2400
<i>Jo'rayeva Dilnoz Raxmidinovna</i>	
O'zbek bolalar folklori tasnifi, janriy tarkibi va Oxunjon Safarov yondashuvi.....	2404
<i>O'rinova Maftuna No'mon qizi</i>	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning zamonaviy holatini tahlil qilish	2409
<i>Xudoykulova Nilufar Xamdorovna</i>	
The Future of AI in English Language Teaching: Trends, Predictions, and Research Directions.....	2414
<i>Mavlonova Sevinch Abdurkarim qizi</i>	
Muhandis-texnik talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	2418
<i>Nazarova Marg'uba Gulamovna</i>	
Oliy ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning zamonaviy modellari	2423
<i>Xomidjonov Abrorjon Olimjon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	2428
<i>Maxkamova Husnida Ro'ziboyevna</i>	
O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari tahlili	2431
<i>Mavlanova Saidaxon Umarovna</i>	
Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish	2436
<i>Yuldashev Bahodir Narzullayevich</i>	

Tarbiya darslari orqali birinchi sinf o'quvchilarini maktabga samarali moslashtirish yo'llari	2439
<i>Tursunonova Nozima Ilxomovna</i>	
O'quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari	2447
<i>Axmedova Gavhar Faxriddinovna</i>	
Artificial Intelligence in Educational Management: Opportunities and Predictive Mechanisms in the Context of Uzbekistan	2451
<i>Abduxamidova Muyassar</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarni mashg'ulot jarayonida texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish	2457
<i>Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning kognitiv fikrlash rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'siri	2460
<i>Axmedov Davlatbek Saloxidin o'g'li</i>	
Developing Coordination and Balance in Athletics	2464
<i>Dehqonova Mahmuda Ortiqovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni Case Study texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash	2470
<i>Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna, Doliyeva Maxfuza Inomiddinovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati	2473
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Intellect xaritalar yordamida o'quvchilarning "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish	2476
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari orqali yosh voleybolchilarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	2482
<i>Imomov Sirojiddin Ilhomovich</i>	
The Historical Roots of Business English and the Lingua Franca	2486
<i>Jabborov Ilyosjon Abduraim ugli</i>	
O'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashda darajalangan o'quv topshiriqlaridan foydalanish	2490
<i>Kadirova Gulnora Xasanovna</i>	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxtaning elektrofizik xususiyatlarini o'rganish	2496
<i>Kosimov Asroriddin Sadiyevich, Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</i>	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish usullari (boshlang'ich sinf matematika darslari misolida)	2501
<i>M. M. Qosimova</i>	
O'zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy an'analar va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashning psixologik omillari	2504
<i>Maxmudjonov I. I.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	2507
<i>Muminova Dilfuza Bahromjanovna</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida autizm spektri buzilgan bolalarning pedagogik-psixologik yondashuvi	2510
<i>Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida guruhli ish shakllarini takomillashtirish nazariyasi va metodi	2513
<i>Safarova Shahlo Shuhratali qizi</i>	
Maktabda informatika fanini o'qitishda virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanish	2517
<i>Saidova Dilduza Ergashovna, Sayfullayeva Sevinch Bahodir qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	2521
<i>Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Sobirova Sabina San'at qizi</i>	
Developing Strength and Endurance in Wrestlers	2526
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
Teaching English for Medical Students: an Effective Approach to Language Acquisition	2532
<i>Shermumadova Diyoraqxon Nurmuhamad kizi</i>	
Sportda kamolotga erishish bosqichi birinchi yilida shug'ullanuvchi dzyudochilarning qarshi hujum samaradorligini oshirish	2535
<i>Sirojiddin Sa'dullayev Ilhom o'g'li</i>	
Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijtimoiy-psixologik omillar	2539
<i>Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarda texnik-taktik harakatlarni modellashtirish va harakatlar assimetriasini bartaraf etish	2543
<i>To'xtasinov Bobir Maxamadali o'g'li</i>	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash texnologiyasi va metodik shart-sharoitlari	2546
Toshtemirova Maftuna Tolibjonovna	
Ta'lim muassasalari o'quvchilarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	2550
Uzakov Arslon Avazovich	
Maktab direktori faoliyatida psixopedagogik liderlik tamoyillari	2553
Xolboboyev Shaxruz Shokirovich	
Ayollarda gender identivlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatalari	2559
Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna	
Boks texnikasini takomillashtirish usullari.....	2562
Xusanboy Mamatqulov	
No-filologik yo'nalishlarda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik strategiyalar: transformativ yondashuv	2566
Yo'Ichiyeva Dilrabo Dilshod qizi	
O'zbek va rus xalq tez aytishlaridagi tasvir vositalarining poetik vazifalari.....	2570
Ayupova Xilola Azamatovna	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов русскому языку как неродному в сопоставлении с их родным узбекским	2574
Касимов Азиз Бердимуратович	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoeomtsional holatini tahlili.....	2578
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun ijtimoiy va kasbiy moslashuvni rivojlantirish texnologiyalari	2581
Amriyeva Dilfuza Ruzievna	
Ta'lim jarayonida semiotik yondashuvni shakllantirishga qaratilgan semiotik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi	2586
Abdusamatov Alisher Sobirovich	
Oliy o'quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini mezonlar asosida tahlil etishda tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili	2591
Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'limni boshqarishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik shartlari	2602
To'rabekov Farxod Sanakulovich	
Parataekvondocilarning musobaqa oldi tayyorgarligi	2607
Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li	
Linguistics in Diplomatic Discourse: The Role of Language in International Relations	2610
Gulmira Kamoladdinovna Madirimova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning lingvistik, pedagogik va psixologik asoslari	2613
Jo'rayeva Gulchexra Abduvohidovna	
Milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi ahamiyati	2617
Raxmatova Nodira	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslari.....	2621
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Geometriya darslarida tarixiy materiallar asosida o'quvchilarning mustaqil ta'limini rivojlantirish	2625
Nosirova Dilnoza Toir qizi	
Funksiya grafisini chizish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni	2629
Musurmonova Shahlo G'ulomovna	
Zamonaviy innovatsion ta'lim tizimida STEAM yondashuvining qo'llanilishi, imkoniyatlari va istiqbollari ...	2633
Rashidova Sanobar Zokirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	2638
Qosimova Zuhaxon G'afur qizi	
Xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'limdagi o'rni.....	2642
Safarova Nigora Oxunjonovna, Bozorova Nozigul Ramazonovna	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni o'stirishning zamonaviy va samarali yechimlari	2647
Karimova Kamola Komil qizi	
Tilshunoslikda terminlarning funksional xususiyatlari	2651
Yavminova Nafisa Mashrobjonovna	
Basketbol sport turining nazariy-metodik asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	2654
Achilov Oybek Hakimovich	
Yuqori intensivlikdagi interval mashg'ulotlarda kardio-respirator chidamlilikni oshirish samaradorligi	2657
Adilbekov To'xtayevich	
Intensiv mashg'ulotdan so'ng yengil atletikachilarning ish qobiliyatini tiklash uchun ergogen moddalar	2661
Allamuratov Mirtaza	
Raqamli va real laboratoriyalarning integratsiyasi orqali fanlararo o'qitish samaradorligini oshirish	2665
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Pedagogical Foundations of Chemistry Lessons tn the use of Natural Resources of Karakalpakstan	2669
Gulnaz Nabatovna Bekimbetova	
Gandbolning zamonaviy rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarlik asoslari hamda to'garaklarda o'rgatish metodikasi	2673
O'rinov Oblaqul Jumayevich	
Оценка биохимических показателей адаптации юных спортсменов к скоростно-силовым нагрузкам	2676
Шукурова Сайёра Садуллаевна	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatining tahlili	2680
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Teaching Perfect English Pronunciation	2683
Uralova Nigora Abduvaliyevna	

O'QUVCHILARNI MUSTAQIL KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA DARAJALANGAN O'QUV TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

Kadirova Gulnora Xasanovna

Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti doktoranti (PhD, dotsent)

Annotatsiya: Ta'lim oluvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni natijalarining sifati uning didaktik ta'minlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liq. Didaktik ta'minot mazmuni ta'lim oluvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muayyan dinamik xususiyatni aks ettirishi lozim, ya'ni o'quvchilar bir xil fikrlash va harakat qilish namunalarini mexanik tarzda takrorlash orqali doira bo'ylab aylanish o'rniga, o'sish spirali asosida rivojlanishlari zarur. Mazkur maqolada o'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashda kasbiy vaziyatlarga yo'naltirilgan, konstruktivistik xarakterga ega o'quv topshiriqlaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, o'quv topshiriqlarining besh tip asosida darajalanganligi, bunda o'quvchilarning kollaborativ faoliyatdan mustaqil ijodiy faoliyatga yo'naltirilishi hamda o'quv topshiriqlarini kasbiy vaziyatlar asosida real kasbiy jarayonlarga moslashtirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada keltirilgan o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish bo'yicha namunalari kasbiy ta'limning farmatsevtika yo'nalishi misolida izohlangan.

Kalit so'zlar: o'quv topshiriqlari, konstruktivistik epistemologiya, didaktik ta'minot, resurslar, vaziyatga asoslangan ta'lim, o'quv topshiriqlari tipologiyasi, organik kimyo.

Abstract: The quality of outcomes in the process of preparing students for independent professional activity is directly related to the level of didactic support provided. The content of didactic support should reflect a certain dynamic character that contributes to students' personal and professional development, enabling growth along a developmental spiral rather than repetitive circular patterns of thinking and action. This article examines the use of constructivist learning tasks focused on professional situations in preparing students for independent professional activities. It also analyzes the classification of learning tasks into five types, facilitating the transition from collaborative activities to independent creative work, as well as aligning learning tasks with real professional processes based on authentic professional situations. The examples of learning task design presented in the article are illustrated using the pharmaceutical field of vocational education.

Key words: learning tasks, constructivist epistemology, didactic support, resources, situational learning, typology of learning tasks, organic chemistry.

Аннотация: Качество результатов процесса подготовки обучающихся к самостоятельной профессиональной деятельности напрямую связано с уровнем ее дидактического обеспечения. Содержание дидактического обеспечения должно отражать определённый динамический характер, непосредственно способствующий личностному и профессиональному росту обучающихся, при котором развитие осуществляется по спирали роста, а не по кругу в форме механического повторения одних и тех же моделей мышления и действий. В статье рассматриваются вопросы использования учебных заданий конструктивистского характера, ориентированных на реальные профессиональные ситуации при подготовке обучающихся к самостоятельной профессиональной деятельности. Также анализируется ранжирование учебных заданий по пяти типам, обеспечивающее переход обучающихся от совместной деятельности к самостоятельной творческой деятельности, а также согласование учебных заданий с реальными профессиональными процессами на основе профессиональных ситуаций. Примеры разработки учебных заданий, представленные в статье, раскрыты на примере фармацевтического направления профессионального образования.

Ключевые слова: учебные задания, конструктивистская эпистемология, дидактическое обеспечение, ресурсы, ситуационное обучение, типология учебных заданий, органическая химия.

KIRISH

O'qituvchi tomonidan boshqariladigan an'anaviy ta'lim jarayoni bixevioristik epistemologiya bilan asoslanib, unda o'quv natijalari barcha o'quvchilar uchun oldindan aniqlanadigan, o'lchanadigan va kutilgan bo'lib, ta'riflash mumkin bo'ladi. Ammo mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorgarlik konstruktivistik (ijodiy va subyektga yo'nal-



tirilgan) epistemologiyaga yaqin turadi. Bu esa an'anaviy ta'lim shakllaridan farq qiluvchi alternativ didaktik yondashuvni talab etadi. Tadqiqotchilar konstruktivistik ta'lim individual, interpretativ va faol ma'no shakllantirishi sababli bilimni bir shaxsdan (masalan, o'qituvchi) boshqa shaxsga (masalan, o'quvchi) to'g'ridan-to'g'ri o'tkazib bo'lmashini, aksincha, o'quvchining o'zi o'z bilim konstruksiyalarini shakllantirishini ta'kidlaydilar. Bunday bilish nuqtai nazaridan shaxsning o'tmishdagi shaxsiy tajribalari uning bilim tuzilmalari yoki "linzalari"ni belgilaydi. Ushbu linzalar orqali hozirgi vaqtdagi ma'lumotlar qabul qilinib, qayta ishlanadi. Bu esa bilimning qanday shakllanishini belgilaydi hamda insonlarning tajriba haqida qanday qilib individual yoki birgalikda qurilgan ma'no yaratishlarini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, rasmiy ta'lim muassasalari kontekstiga taalluqli holda, konstruktivistik ta'lim muhitlarining asosiy farqi shundan iboratki, ta'lim jarayoni "o'quvchilar yechim topishga yoki tahlil qilishga uringan savol, muammo, vaziyat yoki loyiha" orqali boshqariladi va "deyarli har bir konstruktivistik ta'lim tushunchasi o'quvchilarni haqiqiy (authentic) muammolarni hal etishga jalb etishni tavsiya qiladi". Demak, konstruktivistik ta'lim muhitlarida o'quvchilarni real hayotdagi haqiqiy muammolarni hal etish jarayoniga jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz shu o'rinda o'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashda konstruktivizm mazmunidagi didaktik ta'minotni, xususan, didaktik materiallar – darslik, o'quv qo'llanma, qo'shimcha o'quv adabiyotlari (ish daftari, kundalik) hamda o'quv topshiriqlarini muhim deb belgilaymiz. O'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni bevosita didaktik va metodik ta'minot sifatiga chambarchas bog'liq bo'lib, bu, o'z navbatida, ushbu ta'minotning zarur kasbiy resurslarni (bilim, ko'nikma, munosabat) shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qilishi lozimligini taqozo etadi. Shu o'rinda didaktik va metodik ta'minotni ma'lum kasbiy faoliyatning birlamchi va davriy kasbiy vaziyatlariga yo'naltirilgan holda ishlab chiqish hamda uni doimiy takomillashtirib borishni o'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining muhim komponenti etib belgilaymiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogikada shaxsning ma'lum kompetensiyaga ega bo'lishi tizimli topshiriqlarni bajarish asosida shakllanishi bilan belgilanadi. "Topshiriqni bajarish – bu bir vaqtning o'zida jarayon va natijadir. Topshiriqni bajarish qo'yilgan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan uslubni izlashni hamda maqsad orqali aniqlangan harakatni bajarishni o'z ichiga oladi. Bajarish jarayoni harakatlar ketma-ketligi orqali amalga oshadi. Yechimini izlash jarayonida shaxs ma'lum ko'nikmalarni namoyon etadi. Topshiriqlar tizimi – bu ma'lum bir struktura va maqsadlarga ega bo'lgan o'zaro bog'liq elementlar majmuidir" [2].

I.V. Abduraxmanova^[1], S.S. Bakulevskaya^[3], G.M. Voytsexovskaya^[4], G.M. Dyachenko^[6], I.G. Stupak^[10], N.N. Golovina^[5]larning tadqiqot ishlarida ta'lim oluvchilarni ma'lum faoliyatga tayyorlashda o'quv topshiriqlaridan foydalanish masalalari chuqur o'rganilgan. Yechimning natijasi maqsadga erishish bo'lib, G.V. Suxodolskiyning ta'kidlashicha, har bir faoliyat algoritmlashuv xususiyatiga ega. G.V. Suxodolskiy algoritmlarning uchta ko'rinishini ajratadi: topshiriqning aniqlik darajasiga qarab ularni mexanik, variativ va evristik ko'rinishlarga bo'ladi [10].

K.N. Lunguning fikricha, topshiriqlarni yechishning muvaffaqiyatliliigi topshiriqlar mazmuniga fikrlash usullari va komponentlarining qanchalik darajada mos kelishi bilan aniqlanadi [7].

R.I. Sunnatova fikrlash faoliyatida qaror qabul qilishning reproduktiv va mahsuldor xarakterdagi tafovutlarini aniqlab, topshiriqni hal etish mahsuldorligi subyektning fikrlash faoliyatidagi o'sishi hamda topshiriqni hal etish bo'yicha subyektning mustaqil rivojlanish imkoniyatlari bilan uzviy bog'liqlikda kechishini isbotlagan [11].

O'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida ta'lim oluvchilarda ma'lum kognitiv ko'nikmalar, psixomotor va boshqa turdagi bilimlar shakllanishiga erishish lozim. Kognitiv jarayon ko'nikmalari – bu muammoni hal qilish yoki qaror qabul qilish kabi muayyan vaziyatlarda qo'llaniladigan aqliy tartiblar, evristikalar yoki algoritmlar kabi o'rganilgan jarayonlardir. Ular qanday fikrlash zarurligiga oid strategiyalar bo'lib, kontekst va maqsadlarga xosdir. Bu protseduraviy va dinamik turdagi bilim bo'lib, u potensial ravishda "turli mazmun sohalari yoki bilim domenlari bo'ylab o'tkazilishi mumkin". Psixomotor bilimlar esa tana va jismoniy ko'nikmalar hamda tartiblar bilan bog'liq bo'lib, jismoniy faoliyat jarayonida shakllanadi [15].

Demak, umum qabul qilingan tushunchaga ko'ra, bilishga qandaydir aqliy mashqlarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz amalga oshirilganligini tahlil qilish yo'li bilan emas, balki oldindan tayyorlangan aniq ijodiy topshiriqlarni bir necha bor takrorlash va samarali xatti-harakatlarni amalga oshirish natijasida erishish mumkin [16].

O'qitish vositalari professor-o'qituvchiga ta'lim oluvchilarning biluv-amaliy faoliyatini boshqarishga yordam beradigan maxsus yaratilgan qo'llanmalar va turli xil xarakterdagi materiallardir [9]. Ta'lim oluvchilarda intellektual ko'nikmalar ko'p hollarda topshiriqni bajarish, ya'ni topshiriqning talab va shartlarini ajratish jarayonida rivojlanadi. Topshiriq subyekt tomonidan nafaqat tushunarli bo'lishi, balki uning kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ma'lum ko'nikmaga o'rgatishi, ta'lim jarayonidan uzilmagan bo'lishi ham zarur [5].



Ta'lim oluvchilar o'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida o'zlashtirilgan mantiqiy harakatlarni yangi o'quv sharoitlariga o'tkaza oladi, fanlarning umumiy va maxsus jihatlarini aniqlaydi, ular orasida sabab-natijaviy, shartli, funksional va boshqa aloqalarni o'rnatadi. Shuningdek, o'z fikrini isbotlay va asoslab bera oladi, o'zlashtirilayotgan asoslar hamda hodisalar bo'yicha o'z nuqtai nazarini himoya qiladi, yangi tushunchalarni mavjud tushunchalar tizimiga kiritadi. Topshiriqlar tizimi – bu ma'lum bir struktura va maqsadlarga ega bo'lgan o'zaro bog'liq elementlar majmuidir^[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodikasi nazariy tahlil, empirik manbalarni aniqlash, qiyosiy tahlil hamda anketa-so'rovnoma asosida olib borildi. O'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari o'rganildi. Ilgari surilgan ilmiy gipoteza asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilandi. Texnikum o'quvchilarini mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashning konstruktivistik epistemologiyaga asoslangan didaktik ta'minoti shakllantirilib, o'quv jarayoniga tatbiq etildi. Empirik tadqiqotlar asosida o'quvchilarning mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi baholash materiallaridan (anketa-so'rovnoma, o'quv topshiriqlari tipologiyasi) foydalanildi. Tadqiqot ishining tajriba-sinov bosqichlarida kasbiy ta'lim tizimi, tibbiyot yo'nalishidagi texnikumlarning 441 nafar o'quvchisi ishtirok etdi. Tajriba-sinov ishlari "O'quvchilarni kasbiy vaziyatlar asosida mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlash" mavzusidagi mualliflik metodikasi asosida amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biz o'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun bir necha turdagi o'quv topshiriqlarini tizimlashtirishni, bunda ularni konstruktiv, rekonstruktiv, kvazi-professional, professional-produktiv va subyektiv-kreativ kabi tiplarga ajratishni lozim topdik. Shuningdek, ushbu topshiriqlarni bajarishda ta'lim oluvchining mustaqillik holatini kollaborativ mustaqillik, produktiv mustaqillik va kreativ mustaqillik darajalari bilan muvofiqlashtirilgan holdagi progressiv kesishuv nuqtalari koordinatasi tuzilmasini shakllantirdik.

1-tip (konstruktiv) topshiriqlar – ma'lum faoliyatni algoritm ko'rsatmalari bo'yicha bajarishni talab qiladigan o'quv topshiriqlari bo'lib, ta'lim oluvchida umumiy kognitiv bilimlar, fundamental va boshlang'ich kasbiy ko'nikmalar resurslarining shakllanishiga xizmat qiladi.

2-tip (rekonstruktiv) topshiriqlar – ta'lim oluvchilarni ma'lum tartiblangan algoritmdan bir oz chetlanishga, o'rganilgan resurslarni turli asinxron vaziyatlarda qo'llashga rag'batlantirishga yo'naltiriladi.

3-tip (kvazi-professional) topshiriqlar – ta'lim oluvchilarga kvazi-professional muhitda kasbiy vaziyatlar asosida ma'lum kognitiv va amaliy faoliyatni amalga oshirish imkonini beradi. Bunda ta'lim oluvchilar aniq algoritm va yo'riqli texnologik xarita asosida kasbiy vaziyatni simulyatsiya qiladilar.

4-tip (professional-produktiv) topshiriqlar – ushbu tipdagi topshiriqlar bevosita kasbiy vaziyatga aloqador bo'lib, ta'lim oluvchining nostandart kasbiy vaziyatda harakatlanishi uchun ishlab chiqiladi. Kvazi-professional tipdagi topshiriqlardan farqli ravishda, ushbu topshiriqlar aniq algoritmgaga emas, balki ma'lum natijaga asoslangan holda ta'lim oluvchining mustaqil faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan.

5-tip (subyektiv-kreativ) topshiriqlar – o'quvchidan shaxsiy xulosani, munosabatni, o'zini o'zi baholashni va jarayonni takomillashtirishni talab etadi.

Ushbu topshiriqlar uchun quyidagi talablar belgilandi:

- mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida o'quv topshiriqlari tuzilishi va murakkablik xususiyatlari bilan farqlanishi;
- pedagogik maqsadga muvofiqligi; real kasbiy vaziyatlarga asoslanganligi;
- o'quvchilarda mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning spiral rivojlanish bosqichlariga muvofiqligi.

Biz ushbu o'quv topshiriqlarning o'ziga xosligini ularning bevosita kasbiy faoliyatga (ma'lum kasbiy vaziyatga) aloqadorligi hamda o'quvchining mustaqil faoliyatga spiral rivojlanish shaklida tayyorgarligini ta'minlashi bilan izohlaymiz. O'quv topshiriqlarning bevosita kasbiy faoliyatga (ma'lum kasbiy vaziyatga) muvofiqligi talabini quyidagi metodologik asoslar bilan asoslaymiz. Tov va hamkasblari asosiy kasbiy vaziyatlarni ma'lum kasbiy tayyorgarlikning ma'no birligi sifatida ko'riladigan, uzluksiz va to'xtovsiz harakatlar oqimi sifatida boshdan kechiriladigan keyslar ekanligini ta'kidlaydilar^[18]. Bunday kasbiy vaziyatga asoslangan yondashuvda jalb qilingan aktorlarning o'zaro ta'siri va tashkiliy kontekst diqqat markaziga aylanadi. Bu mutaxassisning muayyan vazifa yoki muammo bilan shug'ullanish jarayonining muhim lavhasidir^[13].



Kasbiy vaziyatga asoslangan o'qitish metodikasining ta'lim oluvchilar uchun dolzarbligini oshirish ehti-moli yuqori, chunki haqiqiy amaliyot muammolari bilan ishlash mustaqil kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan ta'limda muhim jihat ekanligi ilmiy manbalarda ko'rsatilgan. Bunda ta'lim oluvchilar tipik amaliyot vaziyatlariga e'tibor qaratadi, keyslarning murakkabligi esa alohida harakat vaziyatlariga bo'linishini hamda keysni alohida vazi-yatga aylantirishga hojat yo'qligini anglatadi. "Kasbiy vaziyatlar asosiga qurilgan ta'lim maqsadli, harakatga yo'naltirilgan, fikrlash va amaliyot uchun kuchli repertuar"ni taklif etadi ^{[14]. [17]}.

Ta'lim oluvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida real hayotdagi amaliyot vaziyatlariga va kasbiy ta'limga tizimli yondashuvlarga e'tibor qaratilishi, ularga turli xil bilim shakllarini vaziyatni sog'lom aql va intuitiv tushunish bilan birlashtirish, shuningdek, qoidalar va protseduralarni o'z so'rovlariga ijodiy yondashuv asosida ko'rib chiqish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, mazkur jarayon ham tahliliy, ham intuitiv fikrlashga aniq e'tiborni o'z ichiga oladi hamda "ongli mutaxassislar" va epistemik ravonlikning doimiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Tadqiqotning vazifalariga mos holda hamda ilgari surilgan tadqiqot farazini asoslash maqsadida biz tomonidan tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Ushbu tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda tadqiqotda ilgari surilgan nazariy g'oyalar va amaliy xulosalar, takliflar, algoritmik ko'rsatmalar hamda o'qitish metodikasi asos qilib olindi va ishlar quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi. Aniqlash va tayyor-garlik bosqichi (2022-2023 o'quv yili). Ushbu bosqichda tadqiqotni amalga oshirish rejasi tuzildi, tajriba-sinov maydonlari aniqlab olindi. Tajriba-sinov uchun tanlab olingan kasbiy ta'lim tashkilotlarida "Organik kimyo" fanini o'qitishning joriy holati o'rganildi, o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv reja va dasturlar namunalari tahlil qilindi hamda tadqiqot farazi shakllantirildi. Tadqiqot muammosining ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy asoslari o'rganilib, tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlashtirildi, tadqiqot obyekti, uning ko'rsatkichlari va mos mezonlar nazariy manbalar asosida tahlil qilindi. O'quvchilarda mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillasht-irish zaruriyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi, ishchi farazlar ishlab chiqildi, o'quv topshiriqlari tizimi yaratildi va aniqlashtirildi.

Amalga oshirish bosqichi (2023-2024 o'quv yili). Ushbu bosqichda o'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining pedagogik modeli ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi. Modelni samarali amalga oshirish uchun pedagogik shart-sharoitlar belgilandi, kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini takomillashtirish yo'na-lishlari, mazmuni va texnologiyalari aniqlashtirildi. Algoritmik ko'rsatmalar ishlab chiqildi hamda o'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan o'quv topshiriqlari tipologiyasi ta'lim jarayoniga tatbiq etildi. Yakunlovchi bosqich (2024-2025 o'quv yili). Ushbu bosqichda tajriba-sinov ishlari natijalari umumlashtirildi, yakuniy diagnostik tashxislar o'tkazildi, olingan natijalar qayta tahlil qilindi, tajribadan o'tkazilgan ma'lumot-lar tizimlashtirildi va ish natijalari rasmiylashtirildi. Ishlab chiqilgan algoritmik ko'rsatmalar, o'quv topshiriqlari hamda elektron ta'lim resurslaridan amaliyotda foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida 5 ta kasbiy ta'lim tashkilotining jami 441 nafar o'quvchisi tajriba-sinov ishlarida ishtirok etdi. Ulardan 206 nafari tajriba guruhiga, 208 nafari esa nazorat guruhiga jalb qilindi. Aniqlash bosqichida o'quvchilarda kimyoviy tajribalarni o'tkazish kompetensiyasining shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida diagnostik metodlar, jumladan, "Organik kimyo" fanidan o'quv-tajriba topshiriqlari va test savollari qo'llanildi. O'tkazilgan test natijalariga ko'ra, tajriba-sinovda ishtirok etgan barcha kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kimyoviy tajribalarni o'tka-zish kompetensiyasi shakllanganlik darajasi deyarli bir xil ekanligi aniqlandi.

Ta'lim oluvchilarning mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish maqsadida tajriba-sinov jara-yonining amalga oshirish bosqichida real kasbiy vaziyatlarga asoslangan didaktik materiallardan ("Organik kimyo" o'quv qo'llanmasi, o'quv topshiriqlari, jarayonni samarali tashkil etishga mo'ljallangan uslubiy qo'llan-malar) keng foydalanildi. Birinchi va ikkinchi darajadagi tajriba topshiriqlari o'quvchilarning aniq berilgan yo'riqnomalar asosida faoliyat yuritishini ta'minlab, tajribalar asosan o'qituvchining to'liq nazorati va yordamida amalga oshirildi. Ushbu jarayonda o'quvchilarning tajriba o'tkazish bo'yicha tashkiliy, texnik, o'lgahigichli, intel-lektual va konstruktorlik ko'nikmalari aniqlandi. Uchinchi va to'rtinchi darajadagi tajriba topshiriqlari kimyoviy tajribalarni o'tkazish kompetensiyasi o'rta (produktiv) darajada shakllangan o'quvchilarni aniqlash imkonini berdi. Bu bosqichda tajriba bajarish algoritmi qisman kiritilgan yo'riqnomalar taklif etildi. O'quvchini baholashda tajriba bajarish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar sonining kamligi va mustaqillik darajasi asosiy mezon sifatida belgilandi. Shuningdek, o'quvchining tajribani kimyoviy tilda qisman izohlashi, yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatishi hamda kimyoviy moddalar va jihozlar bilan texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda ishlashi e'tiborga olindi. Beshinchi darajadagi tajriba topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajargan o'quvchilar kimyoviy tajribalarni o'tka-zish kompetensiyasi yuqori (kreativ) darajada shakllangan o'quvchilar sifatida baholandi. Bunday o'quvchilar tajribalarni xatosiz bajarib, ularning mazmunini kimyoviy tilda izohlash hamda yo'riqnomalardan foydalanmagan holda tajribani mustaqil amalga oshirish qobiliyatini namoyon etdilar. Natijada ushbu o'quvchilarda tajriba o'tka-zish ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanganligi aniqlandi. O'quvchilarning mustaqil kasbiy faoliyatga tayyor-garligini aniqlash maqsadida bajarilgan topshiriqlar asosida diagnostika shkalasi ishlab chiqildi. Shakllantirilgan



mezonlar kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan jarayon samaradorligini bir necha darajalar bo'yicha baholash imkonini berdi hamda samaradorlik ko'rsatkichlari "yuqori (kreativ)", "o'rta (produktiv)" va "past (reproduktiv)" darajalar asosida baholandi.

1-jadval: Tajriba va nazorat guruhlari o'quvchilarida kimyoviy tajribalarni o'tkazish kompetentligining shakllanganlik darajalari

Tayyorgarlik darajalari	Tajriba guruhlari				Nazorat guruhlari			
	Tajriba boshida 208 nafar o'quvchi		Tajriba oxirida 206 nafar o'quvchi		Tajriba boshida 209 nafar o'quvchi		Tajriba oxirida 208 nafar o'quvchi	
	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
Kreativ (yuqori)	30	14.6%	62	30,69%	25	12.01%	26	12,71%
Produktiv (o'rta)	87	41.3%	117	57,92%	84	39.49%	88	41,31%
Reproduktiv (past)	91	44,1%	23	11,59%	100	59,50%	94	47,08%
Jami	208	100	206	100	209	100	208	100

Tajriba va nazorat guruhlari o'quvchilarida mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorgarlikka yo'naltiruvchi tajribalarni o'tkazish kompetentligining shakllanganlik darajalari bo'yicha olingan natijalarga ko'ra, tajriba boshida nazorat guruhlarida o'quvchilarning 12,01% yuqori darajani ko'rsatgan bo'lsa, tajriba oxirida bu ko'rsatkich 12,71% ga yetdi, tajriba guruhlarida esa tajriba boshida o'quvchilarning 14,60% yuqori darajaga erishgan bo'lsa, tajriba oxirida ushbu ko'rsatkich 30,69% ni tashkil etdi.

O'rtacha ko'rsatkichga erishgan o'quvchilar ulushi nazorat guruhlarida tajriba boshida 39,49% ni, tajriba oxirida esa 41,31% ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba guruhlarida bu ko'rsatkich tajriba boshida 41,30% ni, tajriba oxirida esa 57,92% ni tashkil etdi.

Past darajadagi ko'rsatkichga ega o'quvchilar ulushi nazorat guruhlarida 59,05% dan 47,08% gacha kamaygan bo'lsa, tajriba guruhlarida ushbu ko'rsatkich 44,10% dan 11,59% gacha kamaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, real kasbiy vaziyatlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish vaziyatli xotiralarni shakllantirishni qo'llab-quvvatlaydi, ular "mustahkam tushuncha va amaliy muhokamani asoslaydigan integratsiyalashgan va moslashuvchan aqliy tasavvurlar" sifatida yaxlit birliklar holda xotirada saqlanadi. "Vaziyatga joylashtirish" tushunchasiga ko'ra, faqat refleksiyaning o'zi vaziyatli bilimga olib kelmaydi, biroq bu transformatsiyani harakatdan oldingi va keyingi refleksiv faoliyat orqali qo'llab-quvvatlash mumkin.

Tajriba-sinov ishlaridan olingan xulosalar shundan dalolat beradiki, kasbiy ta'lim tizimida o'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasining didaktik ta'minoti mazmunini o'qitishning interfaol metodlari va vositalari, jumladan, amaliyotga yo'naltirilgan masalalar hamda tadqiqotchilik xarakteridagi amaliy ishlardan foydalanish asosida takomillashtirish ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, o'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida real kasbiy vaziyatlarga asoslangan o'quv-uslubiy to'plam ishlab chiqilishi va o'quv jarayoniga tatbiq etilishi lozim bo'lib, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan o'quv topshiriqlari, laboratoriya tajribalari hamda amaliy mashg'ulotlarning variativligi ta'lim jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi. O'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashda baholash mezonlari, xususan, laboratoriya tajribalari natijalari, sharhlar, obyektiv boshqaruv elementlari bajaruvchilarining to'g'ri harakatlari foizi hamda individual hisobot topshiriqlarini baholashning skorlama tizimi ko'rsatkichlari asosida tayyorgarlik darajalarini tashxislash va baholash vositalaridan foydalanish zarur.

Shu tariqa, amaliyot vaziyatlari bilan bog'liq deklarativ bilim va tushunchalar harakat bilan assotsiativ tarzda bog'lanib, samarali vaziyatli bilimni shakllantirishi mumkin. Bunda muayyan boshdan kechirilgan vaziyat ustida refleksiya yuritish va uni mavjud bilimlar bilan bog'lash orqali o'rganilgan material xotirada vaziyatga bog'liq holda saqlanadi hamda bunday bilimni duch kelingan o'xshash vaziyatlarda eslab qolish yoki ushbu vaziyatlarga oldindan tayyorgarlik ko'rishda qo'llash imkoniyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдрахманова И.В. Методика использования учебно-познавательных задач для формирования логических операций у студентов колледжа в процессе обучения математике / И.В. Абдрахманова // Автореф. дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.02. – Волгоград: ВГПУ, 2004.
2. Абдурахманова Ш.А. Касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнида талабаларнинг интеллектуал кўникмаларини ўқув топшириқлар тизими воситасида ривожлантириш // Kasb-hunar ta'limi. – Toshkent, 2021. – № 1. – Б. 13–17. (13.00.00, № 19).



3. Бакулевская С.С. Становление интеллектуально-творческой деятельности старшеклассников в процессе решения эвристических задач: автореф. дисс. ... канд. пед. наук / Бакулевская Светлана Сергеевна. – Волгоград, 2001. – 23 с.
4. Войцеховская М.Ф. Развитие интеллектуального компонента творческих способностей учащихся на основе использования информационных технологий в педагогическом процессе: автореф. дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.01. – Благовещенск, 2005. – 23 с.
5. Головина Н.Н. Методика использования систем задач по информатике как средства формирования интеллектуальных умений у студентов колледжей: дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.02 / Головина Надежда Николаевна. – Волгоград, 2013. – 41 с.
6. Дьяченко Г.М. Компетентностный подход к формированию логической культуры учащихся в процессе обучения информатике: автореф. дисс. ... канд. пед. наук / Дьяченко Галина Михайловна. – Омск, 2005. – 22 с.
7. Лунгу К.Н. Систематизация приёмов учебной деятельности студентов при обучении математике / К.Н. Лунгу. – М.: КомКнига, 2007. – 424 с. (Психология, педагогика, технология обучения: математика).
8. Набиулина Л.М., Абдурахманова Ш.А. Мультимедийные системы и технологии: учебник. – ГРИФ № 603–161. – Т.: Навруз, 2018. – 194 с.
9. Ступак И.Г. Педагогические основы формирования творческого мышления курсантов при решении ими системы учебно-познавательных задач: автореф. дисс. ... канд. пед. наук / Ступак Ирина Григорьевна. – Самара, 1998. – 22 с.
10. Суннатова Р.И. Индивидуально-типологические особенности мыслительной деятельности: автореф. дисс. ... докт. психол. наук. – Ташкент, 2001. – 41 с.
11. Суходольский Г.В. Основы психологической теории деятельности / Г.В. Суходольский. – 2-е изд. – М.: Издательство ЛКИ, 2008. – С. 73.
12. Drinkwater, M. (1992). Visible actors and visible researchers: Critical hermeneutics in an actor-oriented perspective. *Sociologia Ruralis*, 32(4), 367–388. doi:10.1111/j.1467-9523.1992.tb00938.x
13. Gordon, M.J. (2018). Everyday social work practice: Listening to the voices of practitioners. PhD thesis. University of Edinburgh. Available from: <http://hdl.handle.net/1842/31463>
14. Carson, R.N. (2004). A taxonomy of knowledge types for use in curriculum design. *Interchange*, 35(1), 59–79.
15. Zakirova F.M., Abdurakhmanova Sh.A. The use of multimedia technologies for the development of intellectual skills of students // *International Scientific Journal of Theoretical & Applied Science*, 09(89), 24–29. – Philadelphia, USA, 2020. SOI: 1.1/TAS. DOI: 10.15863/TAS. ISSN: 2308-4944.
16. Markauskaite, L., & Goodyear, P. (2017). *Epistemic Fluency and Professional Education: Innovation, Knowledgeable Action and Actionable Knowledge*. Dordrecht: Springer.
17. Tov, E., Kunz, R., & Stämpfli, A. (2016). *Schlüsselsituationen der Sozialen Arbeit: Professionalität durch Wissen, Reflexion und Diskurs in Communities of Practice*. 2nd ed. Bern: hep. Available from: <https://www.hep-verlag.ch/schluesselsituationen/>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.